# 2020-yilning yanvar oyida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma’lumotlar bo’yicha, 2020-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 405,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo`lib, o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,1% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,2% ga, elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,9% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,chiqindilarni utilizatsiya qilish 0,4% ga o`sishi hisoblanadi.

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

**Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash**

hajmi 8,7 mlrd.so`m

ulushi 2,1 foiz

**Ishlab chiqaradigan sanoat**

hajmi 366,1 mlrd.so`m

ulushi 90,2 foiz

**Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

hajmi 27,9 mlrd.so`m

ulushi 6,9 foiz

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

hajmi 3,2 mlrd.so`m

ulushi 0,8 foiz

# 2020-yilning yanvar oyida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo`yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog`- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,7 mlrd. so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 366,1 mlrd. so`mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,2 % ni tashkil etdi.

O`z navbatida sanoatning mazkur tarmog`ida eng yuqori ulush to`qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda 38,1 % kuzatildi. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarini Ishlab chiqarish 15,6 %ni, boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 11,3 %ni, kiyim ishlab chiqarish 6,0 %ni tashkil etganligini ko`rishimiz mumkin.

**Yillar kesimida sanoatninig ishlab chiqarish hajmi,** mlrd so`mda



## Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| 2020-yil yanvar oyida | Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari | O`tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|
| 8124,0 | Paxta chigiti, t. | 84,7 |
| 1688,0 | Paxtadan yigirilgan ip, t. | 177,1 |
| 4905,0 | Yumshoq bug'doy va spelta uni, t. | 92,9 |
| 230,3 | O’simlik yog’i (tozalangan), t | 24,9 |

| 2020-yil yanvar oyida | Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari | O`tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|
| 5061,0 | Paxta tolasi, t. | 85,6 |
| 47,5 | Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo`rg`oshinli akkumulyatorlar, ming dona | 76,5 |
| 191,0 | Mashinada yoki qo`lda to`qilgan trikotaj polotnolar, t. | 138,4 |
| 454,0 | Paxta linti, t. | 80,5 |

## Elektr, gaz, bug` bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020-yilning yanvar oyida elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 27,9 mlrd.so`mni(jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,9 %ni ) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 111,4 % ni tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,2 mlrd.so`mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8%ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida chiqindilarni yig`ish, ishlov berish, yo`qotish, utilizasiya qilish hajmi jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,8 % ni, suv yig`ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,4 % ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqarishninig texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat hajmi, mlrd.so`m



## Ishlab chiqarishninig texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



Jizzax viloyati bo'yicha 2020-yil yanvar oyida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 405,9 mlrd. so`mni tashkil etgan bo`lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 102,8% ni tashkil etdi.

## 2020-yil yanvar oyida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




## 2020-yil yanvar oyida ishlab chiqarish indeksi, % da



Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida jami sanoatda hududlarning ulushi sezilarli o`shmoqda. Bunda eng yuqori ulush Jizzax shahrida (45,8 %) kuzatildi. Shu bilan birgalikda, Do`stlik (14,4%), Paxtakor (5,1%), Sh.Rashidov (5,3%) va Zomin (5,2 %), tumanlarida ham nisbatan yuqori ulushni ko`rish mumkin.

## 2020-yilning yanvar oyida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'rni, % da



## Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo`llab-quvvatlash bo`yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste`mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 138,1 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019 yilning yanvar oyiga nisbatan 91,1 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 34,0 % ni tashkil etdi.

hajmi, mlrd. so'm




**2019-yilning yanvar oyida iste`mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 65,1%dan 2020-yilning yanvar oyida 68,3 %ga ko`paygan.**



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 296,9 ming so`mni tashkil etdi. Jumladan, Jizzax shahrida 1055,7 ming so`mni, Do`stlik tumanida 904,3ming so`mni, Paxtakor tumanida 281,9 ming so`mni, Arnasoy tumanida 451,0 ming so`mni tashkil etdi.

## 2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste`mol tovarlari, ming so'm



Dastlabki ma`lumotlarga asosan joriy yilning 1-fevral holatiga sanoat tarmog`ida faoliyat yuritayotgan 101 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 91,3 mlrd. so`mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 22,5% ni tashkil etdi.

## **Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi,** mlrd. so'mda



## Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub`yektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 229,6 mlrd. so`mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo`lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 56,6 % ni tashkil etdi.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi, % da







## Iste'mol mollarida kichik biznesning hissasi, % da






## Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Viloyatda 2020-yil 1-fevral holatiga 2821 ta sanoat korxonalari faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, ulardan 956 tasi Jizzax shahrida, 615 tasi Sharof Rashidov, 253 tasi G`allaorol, 259 tasi Zomin, 223 tasi Forish, 118 tasi Zarbdor, 102 tasi Paxtakor, 100 tasi Do`stlik,86 tasi Baxmal, 79 tasi Mirzacho`l, 81 tasi Zafarobod, 56 tasi Arnasoy va 44 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

### 2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda



## 2020-yil 1-fevral holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda




**Sanoat statistikasi bo'limi**
**telefon: (71) 230-83-47**